

YOSHLAR ONGIDA MA'NAVIY TARBIYA VA UNING NATIJALARI

To'lanov Mamasidiq Qodirovich,

*Qo'qon Universiteti Andijon filiali, Ijtimoiy
va iqtisodiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi.*

+998 90 142 82 52

Asqarov Xumoyun

*Qo'qon Universiteti Andijon filiali, Davolash
ishi yo'nalishi talabasi.*

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilayotgani bilan birga yoshlar ongida manaviy tarbiyaga ham katta e'tibor qaratilayotgani haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Manaviy tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, dunyo qarash, tafakkur, jamiyat, ta'lim tarbiya.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismonan sog'lom tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishiga qaratilgan chora tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birgalikda Ruspublikamizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ta'lim sifatini oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan. Ayniqsa, kelajakni o'ylab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir” - deb aytgan da'vati olamshumul ahamiyatga egadir [1-1]. Shu o'rinda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini zamon talablari asosida shakllantirish ham dolzarb vazifa bo'lib bormoqda. Yosh avlodning bugungi kundagi ma'naviy tarbiyaga oid bilimlarga bo'lgan ehtiyojlari va talablarini qondirish ham hayotiy zaruriyatdir. Ma'lumki, mamlakatimizda borgan sari shakllanib borayotgan

bozor iqtisodiyoti yoshlar ongida ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish, tizimi ta'lim sifatida o'z qonuniyatlariga egadir. Bu qonuniyatlarni o'rganish, egallash, shu bilimlar asosida harakatlar jarayonida foydalanish hamda amaliyotga tatbiq qilish katta ahamiyatga molik vazifadir. Yoshlarning iqtisodiy ongu tafakkurini bozor munosabatlari asosida shakllantirish va tarbiyalash natijasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini hayotga tatbiq qilishda ularning faolligi ortadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Islahotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz" - deb ta'kidlagan[2-23].

Jahonshumul asar bo'lgan «Avesto»da kishilarning dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanish kerakligi, yer, suv, havoni bulg'alah, ifloslantirish og'ir gunoh ekanligi ta'kidlanadi[3]. Yurtimizda ota-bobolarimiz tomonidan qabul qilingan islomiy diniy dunyoqarashlarda ham ilm, bilim va tushunchalarga alohida e'tibor qaratilib, savdo-sotiq ishlarini halol amalga oshirish, boshqalarni aldamaslik, sudxo'rlik bilan shug'ullanmaslik, birovning mulkiga xiënat qilmaslik, meros, mahr masalalarida adolatli bo'lishga beqiyos e'tibor qaratilgan..

Yoshlarda ong va tafakkurning rivojlanishida oila o'g'itlari ham alohida o'rin tutgan, oiladan boshlab hunar egallash, ro'zg'or ishlarini yuritish, mehnat qilish, tejamkorlik, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka qat'iyan o'rgatilgan. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy mafkuraviy taraqqiëtining hozirgi yoshlarda ma'naviy qobiliyatining rivojlanishi xamda ma'naviy madaniyatini shakllantirish, ularni yot g'oyalar ta'siridan ximoya qilish tom ma'noda ma'naviyatni yuksaltirish, yoshlarda tafakkur, madaniyat va ma'naviy tarbiyaning qanchalik rivojlanganligi bilan bog'liqdir.

Yoshlarda ma'naviy tafakkur – insonning ijtimoiy jihatdan voqea-hodisalarni tahlil qilishi, unga baho berish va qaror qabul qilish, kishidagi ma'naviy tarbiya,

axloqiy qarashlar, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy bilim va tushunchalar, iqtisodiy xatti-harakat majmuidan iborat bo'lib, uning asosida ma'naviy moddiy madaniyat paydo bo'ladi. Yoshlarda ta'lim tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirib, uning samarasi o'laroq yoshlar ongida ma'naviy-axloqiy faoliyatidagi ishtirokida namoèn bo'ladi. Mamlakatimizda olib borilaётган bozor islohotlarining jamiyatga jadal tatbiq etilishi, uning asl mohiyatini anglash va ro'ёbga chiqarish ham aholida iqtisodiy madaniyatning shakllanganligi va iqtisodiy bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganligiga bog'liq. Iqtisodiётni rivojlantiruvchi kuch inson omili ekan, insonning iqtisodiy bilimlarni egallashi va ma'naviy tarbiyaga ega bo'lishi, madaniyatliligini ta'minlaydi. tarbiyaning maqsadi madaniyatni shakllantirishdan iborat.

Ma'naviy tafakkur va tarbiya uyg'unligida inson ijtimoiy faoliyatining ana shu tomonlarini aks ettiradi. Ma'naviy tafakkur va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ko'nikmalarini o'zlashtirmasdan yoshlar ongini ongli, izchil va ilmiy o'zgartirish hamda takomillashtirish mumkin emas. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim –tarbiya berish tizimini yangi bosqichga ko'tarishda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;
- yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;
- yoshlarning xuquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida xuquqbuzarliklar va jiroyatlar sodir etilishini oldini olish;
- yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ulanishi uchun shart sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- iqtisodiy bilimlar, ko'nikmalar va mahoratni kundalik amaliётda, mehnatda, oilaviy maishiy munosabatlarda, ijtimoiy-siёsiy, boshqaruv va tadbirkorlik faoliyatida qo'llash.

Shunday qilib, manaviy bilimlarni egallash va o'zlashtirish iqtisodiy madaniyatdan ma'naviyatga, bilimdan e'tiqodga, undan esa, o'z navbatida, real amaliy harakatlar sari yuksalishni nazarda tutadi. Demak, moddiy va ma'naviy madaniyat yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatda ijtimoiy ong munosabatlar saqlanar ekan, iqtisodiy madaniyat va ma'naviy tarbiya, falsafiy, huquqiy, axloqiy, estetik, pedagogik-psixologik asos va xususiyatlarga ega bo'ladi. Iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy tarbiyaning faoliyati bilimdan e'tiqodga va mazkur bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga harakat tarzida sodir bo'ladi. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy vajismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiyaberish

har qanday tarbiya nazariyasi nuqtai nazaridan, haet hodisalari normalariga va qoidalari talabiga qarashni talab etadi.

Ma'naviy tafakkur manaviy tarbiya nazariyasining o'zagidir. Bugungi kunda respublikamizda ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida ta'limning asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib boraetgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayirlash va bu jaraenda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy endashuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tatbiq qilish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim.

Shu bilan birga ma'naviy-axloqiy tarbiya keng ko'lamli uzluksiz jaraen hisoblanadi. Bunda davlat va nodavlat tashkilotlari birdek ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, mahalla, o'zini-o'zi boshqarish organlari erdamida iqtisodiy tafakkur shakllanishiga xizmat qiluvchi amaliy tadbirlarni tashkil qilish, ular erdamida har bir oilaga kirib borish, suhbatlar tashkil qilish, iqtisodiy madaniyatni targ'ib qiluvchi shior va tashabbuslar bilan chiqish, mahallalarda targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish lozim.

Yoshlarni manaviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, yoshlar ongini va tafakkurini oshirish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning xozirgi bosqichida mintaqalarda, ayniqsa maxallalarda xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy

tadbirkorlik, kasanachilik, xunarmandchilikni rivojlantirish bugungi dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Xulosa qilib aytganda, `yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish natijasida yoshlarning ongu tafakkurini to‘g‘ri shakllantirish ijobiy natijalarga olib kelmoqda va bugungi voyaga yetib kelayotgan avlodda yangilanayotgan dunyoqarash va bunyodkorlikka intilish xususiyatlari kuzatilmoqda.

ADABIYOTLAR

SH.Mirziyoyev. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jixatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar. 2018 yil 14 avgust.

SH.Mirziyoyev. Inson manfaatlari va huquqlarini ta’minlash-demokratik jamiyatning asosidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. 2017 yil 19 sentabr.

SH.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021 y. 23-bet.

Avesto: "Videvdot" kitobi. –T., 2007.